

IBORALARNI TARIXIY-ETIMOLOGIK ASOSDA O'QITISHNING LINGVOMETODIK ASOSLARI

Farxodova Bibijon O'tkirbek qizi

ToshDO'TAU O'zbek tili va adabiyoti ta'limi yo'nalishi 3-bosqich talabasi

farxodovabibijon2577@gmail.com +998770045077

Annotatsiya: *Ushbu maqolada o'zbek tilidagi iboralarining tarixiy-etimologik ildizlari va ularni o'quvchilarga samarali o'rgatishning lingvometodik asoslari yoritiladi. Manbalarga tayangan holda iboralar semantik jihatdan tahlil qilinadi. Maqolada iboralarini o'qitishda tarixiy-etimologik yondashuvning ahamiyati, usullari va amaliy qo'llanish shakllari bayon etiladi.*

Kalit so'zlar: *frazeologik birlik, etimologiya, tarixiy kontekst, vizual metod, lingvometodika*

O'zbek tili obrazli ifodalarga boy bo'lib, xalq og'zaki ijodining namunalaridan biri frazeologizmlardir. Har bir ibora o'zida xalqning dunyoqarashi, qadriyatlari, tarixiy xotirasi va tafakkurini mujassam etadi. Bugungi tilshunoslikda frazeologik birliklarning semantik yuki, qo'llanish imkoniyatlari va ularni samarali o'rgatish masalalari dolzarb ahamiyat kasb etmoqda. Ularni tarixiy-etimologik asosda o'qitish orqali o'quvchilarda tilning ichki tizimini, taraqqiyoti va xalq tafakkuri bilan bog'liq jihatlarni chuqurroq anglash imkoniyati yuzaga keladi.

Ibora — bu ma'no jihatidan yaxlit bo'lgan, odatda ko'chma ma'no anglatadigan, tarkibiy qismlari alohida o'z ma'nosini yo'qotgan, ammo barqaror shaklda tilga singib ketgan so'z birikmalaridir.

Iboralar quyidagi xususiyatlarga ega:

-  Barqarorlik: Tarkibi o'zgarmaydi, so'zlar almasha ma'no buziladi.
-  Ko'chma ma'no: Tashqi shaklidan farqli, obrazli ma'noni anglatadi.

✚ Ekspressivlik: Emotsional va stilistik jihatdan boy.

Tarixiy-etimologik yondashuv — frazeologizmlarning kelib chiqishini, qadimiy manbalardagi shaklini, ma’no o’zgarishlarini aniqlab, ularni hozirgi ma’nolari bilan solishtirishdir. Bu yondashuv orqali frazeologik birliklarning tildagi taraqqiyoti, ijtimoiy-madaniy kontekstdagi ahamiyati aniqlanadi. **Lingvometodika** — bu til materiallarini o’qitishning ilmiy asoslangan metodlari, vositalari va shakllarini o’rganadigan soha. Iboralarni o’rganishda lingvometodik yondashuv quyidagilarga asoslanadi:

- ✓ Til birliklarini bosqichma-bosqich tushuntirish.
- ✓ Dars mazmuniga mos uslub va usullarni tanlash.
- ✓ O’quvchilar yoshiga, til darajasiga, qiziqishiga qarab metodik moslashuvni ta’minlash.

Iboralarni o’rgatishda samarali deb topilgan lingvometodik yondashuvlar keltiriladi:

1. Tarixiy kontekst asosida o’rgatish

Ibora qadimiy manbada qanday ishlatilgani, tarixiy kontekstdagi ma’nosi tushuntiriladi. Kultegin toshbitigidagi “to’zsiz” so’zi bugungi “tuzsiz odam” iborasining ildizi sifatida talqin qilinadi.

2. Etimologik tahlil

Ibora tarkibidagi so’zlar lug’aviy, morfologik, tarixiy nuqtai nazardan tahlil qilinadi. Bu orqali o’quvchi nafaqat ifodaning ma’nosini, balki u bilan bog’liq tafakkurni ham anglaydi.

3. Vizual yondashuv

Frazeologik birlikni ifodalovchi rasm, diagramma, davriy jadval yordamida darsda tushuntirish. Bu metod eslab qolish qobiliyatini oshiradi.

4. Taqqoslash usuli

Tarixiy va zamonaviy ma’nolarini solishtirish.

5. Interaktiv metodlar

Qiziqarli o'yinlar, munozara orqali frazeologik birliklarni mustahkamlash. Masalan, frazeologik ifoda asosida kichik sahna ko'rinishlarini tashkil etish.

Yuqorida ta'kidlangan yondashuvlar orqali iboralarni o'qitish o'quvchilarda nafaqat til boyligini kengaytiradi, balki ularning tanqidiy tafakkuri, ongini, tarixiy xotirasini va milliy qadriyatlarga nisbatan hurmatini shakllantirishga xizmat qiladi. Tarixiy-etimologik tahlil orqali frazeologizmlar leksik ma'nosi bo'yicha yuzaki tushuniladigan ibora sifatida emas, balki xalq tafakkurining qatlamli ifodasi sifatida talqin etiladi. Bu esa til o'rganishni yodlash emas, anglash jarayoniga aylantiradi.

Mazkur fikrlarni quyidagi tarixiy va amaliy misollar orqali yanada aniqlashtirish mumkin:

“Tuzsiz odam”, “gapining tuzi yo‘q” deganda “tartibsiz, asossiz, tuturiqsiz odam”, “gapining asosi, tartibi, tuturigi yo‘q, to‘g‘ri emas” kabi ma'nolar tushuniladi. “O‘zbek tilining izohli lug‘ati”da bu so‘z ovqatga solinadigan osh tuziga bog‘lab tushuntiriladi. Lekin bu ibora yaqinda paydo bo‘lgan so‘z emas, hattoki u eng qadimgi turkiy obidalarda ham uchraydi. Xususan, VIII asr yodgorligi Kultegin toshbitigida shunday jumla bor: “Bägläri, buduni to‘zsiz o‘cho‘n, tabg‘ach budun tabligin ko‘rlig o‘cho‘n...”, – ma'nosi: “beglari, xalqi tuzsiz (bo‘lgani) uchun, tabg‘ach elining yolg‘onlariga uchgani uchun...”¹.

To‘g‘ri, tuz ma‘dani azaldan turkiyda – tuz, lekin unga shakldosh, ammo ma‘nosi farqli bo‘lgan boshqa “tuz” o‘zakli so‘zlar ham borki, Mahmud Koshg‘ariy “Devonu lug‘otit-turk”da shunday so‘zlardan beshtasini keltiradi: 1. To‘z – qayish yoki kamarga taqiladigan va bog‘lanadigan halqa; 2. To‘z: ÷l to‘z nētāk? – mamlakat, el qanday? (bu yerda “mamlakat”, “yurt” ma‘nosida); 3. To‘z – asl, tag, asos. Misol: äniñ to‘bi, to‘zi kim? – uning tagi, zoti, asli kim? Kimga borib taqaladi? 4. To‘z: to‘z jör – to‘g‘ri, tekis yer. 5. To‘z – tuz².

¹ Abduvohid Hayit., Tuzsiz odam. Jadid. –Toshkent: Sharq, 2024. –№32.

² Abduvohid Hayit., Tuzsiz odam. Jadid. –Toshkent: Sharq, 2024. –№32.

“Devon”da alohida ma’nolari ko’rsatilgan bu so’zlarning aksariyati, aslida, kelib chiqishi jihatidan “tekis”, “to’g’ri”, “tartibli” kabi ma’nolarga ega bir o’zakka borib taqaladi. Shuningdek, bu o’zakdan “tuzmoq”, “tuzatmoq”, “tuzuk”, “tuzum” kabi so’zlar ham yasalgan.

Shunday qilib, Kultegin toshbitigida: “beglari va xalqi tuzsiz bo’lgani uchun” deyilganda “tuzsiz” sifati – “osh tuzi” emas, balki boshqa ma’nodagi “to’z” o’zagidan yasalgan bo’lib, jumlada: “beglari va xalqi to’g’ri, tartibli, asosli, xoqoniga sodiq bo’lmagani uchun, aksincha tabg’ach xalqining yoqimli narsalariga aldangani uchun” degan fikr aytilyapti³.

Hozirgi kunda *do’ppisi yarimta* iborasi kam qo’llangani bois ma’nosiga tushunish qiyin. Izohli lug’atga ko’ra, *do’ppisi yarimta* iborasi ishi joyida, g’am-tashvishi yo’q, parvoyi falak, beg’am kabi ma’nolarni anglatadi. Bunda *do’ppisini* qiyshaytirib yoki buklab kiyib yuradigan, shu orqali kayfiyati zo’rligi, dunyoni suv bossa to’pig’iga chiqmasligini ko’rsatadigan odam ifodalangan. Lekin *do’ppisi yarimtalik* har doim ham fazilat emas, u o’zidan bexabarlikka, turli mashaqqat va qiyinchiliklarga ham sabab bo’lishi mumkin:

...odamlar oyog’idan qarzga ilinadi. Hech nima bo’lmaganday, *do’ppisi yarimta*! Halqumigacha qarzga botganini o’zi sezmay qoladi. (Oybek, “Qutlug’ qon”).

Iboraning *do’ppi yarimta*, *do’ppini yarimta* qilib, *do’ppisini yarimta* qilib kabi shakllari ham bor:

“Sessiya-sessiya deb qo’rqitishadi, sessiyasi hech gap emas ekan-ku”, deb *do’ppini yarimta* qilib yurishuvdi. (P. Qodirov, “Uch ildiz”).

Sichqonning ini ming tanga iborasi kishi qochishga joy topa olmay qolgan paytni ifodalaydi. Yashirinishga joy-imkon topolmayotgan odam noilojlikdan hatto sichqonning inini ming tangaga olishga tayyor. Sichqonning ini odam uchun o’ta kichik, unga sig’ish, kirib yashirib olish mutlaqo imkonsiz. Aqli joyida kishiga buni uqtirish o’zi aqlsizlik. Lekin yuragi taka-puka bo’lib turgan kishining qo’rquvi shu darajadaki, sichqonning inidan ham umid qiladi:

³ Abduvohid Hayit., Tuzsiz odam. Jadid. –Toshkent: Sharq, 2024. –№32

Shu vaqt deng otam birdan hayhaylab kelib qoldilar-ku, Rahimvoyga sichqonning ini ming tanga bo'ldi. (H. Nazir, "So'nmas chaqmoqlar".)

Bu iboraning sichqon ini ming tanga bo'ldi, sichqon ini ming tanga bo'lib ketdi, sichqonning inini ming tanga qilib yubormoq kabi variantlari bor.

Ibora maqol tarkibida ham uchraydi:

Qo'rqoqqa sichqonning ini – ming tanga.

Qadam ranjida qilmoq iborasida kuzatish mumkin. Ranjida degani uringan, qiynalgan ma'nosiga ega. Ibora oyog'ini og'ritib kelish, ovora bo'lib kelishni anglatadi. Ikkinchi yo uchinchi shaxs haqida shunday mulozamat bilan gapirish mumkin: qadam ranjida qiling, qadam ranjida qildilar.

Iborani birinchi shaxs tilidan ishlatish xatodir:

Bugun ajoyib bir ilm dargohiga qadam ranjida qildim ✗

Bugun ajoyib bir ilm dargohiga qadam ranjida qildik ✗

Ilm dargohiga ovora bo'lib keldim, vaqtimni oldilaring degani bu. Aqli bor odam bunaqa mazmunda gapirmaydi. Malollansa, kelmay qo'ya qoladi. Shunda oyog'ini ham, boshqalarning ko'nglini ham og'ritmaydi.

Yuqoridagi jumlani mana bunday tahrirlash mumkin:

Bugun ajoyib bir ilm dargohiga bordim ✓

Bugun ajoyib bir ilm dargohiga bordik ✓

Bu xuddi tashrif buyurmoq iborasiga o'xshaydi. Siz tashrif buyurmaysiz. Sizga tashrif buyuring deyishadi yoki ulug', hurmatli kishilar haqida tashrif buyurdi deb gapirishadi.

Lutfan taklif qilmoq iborasida ham shunaqa xatoliklar uchraydi. Birovni to'yga yo ziyofatga taklif qilgan odam lutf qilmaydi, shu taklifga labbay deb javob bergan, boshqa ishini qo'yib, vaqt ajratib kelgan odam lutf qilgan bo'ladi. Kishidan lutfan, ya'ni lutf qilib mehmon bo'lishini so'rash mumkin.

Men qadam ranjida qildim, biz qadam ranjida qildik kabi iboralarda ham shunday mantiqiy xato bor.

To'nini teskari kiyadi iborasi ham ma'nosiz emas. To'nni kim teskari kiygan? G'azab otiga minib, mushtlashaman degan kambag'al teskari kiygan. Qon tegsa, loy tegsa astarga tegsin, yirtilsa astar yirtilsin, yamoq tushsa astarga tushsin deb *to'nni teskari kiygan*. Kambag'alning to'ni ikki bo'lmagan. Yirtilsa boshqasini kiyolmagan. Shuning uchun xalq orasida shunday maqol bor: "Kambag'alni urma, so'kma, to'nini yirt". Hozirgi kunda to'nni teskari kiyishga zarurat yo'q. Lekin bu ibora xalq orasida unut bo'lmagan⁴.

Yuqorida ta'kidlangan iboralarni ta'lim muassasalarida o'qitish uchun vizual yondashuvdan foydalaniladi. Iboralarni o'qitishda o'quvchilarning faolligini oshirish, mantiqiy va tahliliy fikrlashini rivojlantirish maqsadida muallif tomonidan ishlab chiqilgan "**Sizdan ugina, bizdan bugina**" nomli interaktiv-assotsiativ metod taklif etiladi. Bu metod o'z mohiyatiga ko'ra rebus va analitik tafakkur elementlariga asoslanadi va o'quvchilarning vizual **xotira**, fonetik tahlil, semantik bog'lanish ko'nikmalarini shakllantiradi. Metodning umumiy g'oyasi — berilgan rasmlı, harfli, belgi asosidagi shifrlangan ma'lumotdan kelib chiqib, frazeologik iborani topish va uni tahlil qilishdir.



Ushbu metod quyidagi ketma-ketlikda bajariladi:

1-qadam. Rasmda nima ifodalangani aniqlanadi. Har bir rasm alohida so'zga ishora qiladi (sichqon, Chingiz, un, ming, tanga).

⁴ Эркин Воҳидов. Сўз латофати. —Тошкент: О'zbekiston, 2014.—57 б.

2-qadam. Rasm tagida harf almashtirish belgilari (masalan, “CH=N”) asosida rasmga bog‘liq so‘zdagi harf o‘zgartiriladi.

3-qadam. 3-rasmda “un” hosil bo‘ladi, rasm tagida [U=I] bo‘lgani bois “u” harfi “I”ga o‘zgarib, natijada [in] so‘zi hosil bo‘ladi. Rasmdan keyin “I” harfi qo‘yilgani uchun “in”ga qo‘shilib, “ini” hosil bo‘ladi.

4-qadam. 2-rasm o‘ng tarafida ikkita [’] belgisi qo‘yilgani bois “Chingiz” so‘zi oxiridagi ikkita harf tushib qoladi. Agar ushbu belgi rasmning chap tarafida kelsa, so‘z oldidan harf tushib qoladi. “CH”ni “ N” harfiga o‘zgartiriladi, natijada “ning” hosil bo‘ladi.

5-qadam. So‘zlar ketma-ketlikda birlashsa, “sichqonning ini ming tanga” frazeologik iborasi hosil bo‘ladi.

“Sizdan ugina, bizdan bugina” topshirig‘ini boshqa mavzularda ham qo‘llasa bo‘ladi, topshiriqni tuzishda o‘quvchilarning yoshini inobatga olgan holda tuziladi. Ushbu topshiriq o‘quvchilar orasida sinovdan o‘tkazilmagan, lekin Zakovat intellektual o‘yinlarida bundan foydalaniladi. Bu topshiriq orqali o‘quvchi nafaqat iborani topadi, balki uni qanday tahlil qilganini tushuntiradi. Rasmlar asosida tashkil etilgan “Sizdan ugina, bizdan bugina” metodi frazeologik birliklarni mustaqil topish, tahlil qilish va tarixiy-etimologik jihatdan anglash imkonini yaratadi. Ushbu metod o‘quvchilarni faollikka undaydi, ularda tanqidiy fikrlash, ijodiy yondashuv va frazeologizmlarni ongli o‘zlashtirish ko‘nikmalarini shakllantiradi.

Iboralarni tarixiy-etimologik asosda o‘qitish — bu nafaqat til birliklarining yuzaki ma’nosini, balki ularning chuqur tarixiy ildizlari, semantik qatlamlari va xalq tafakkuridagi o‘rnini tushuntirish. Ushbu maqolada ko‘rib chiqilgan lingvometodik yondashuvlar, xususan, vizual metod, etimologik tahlil, tarixiy kontekst va muallif tomonidan ishlab chiqilgan “Sizdan ugina, bizdan bugina” metodi frazeologik birliklarni o‘rgatishda innovatsion yondashuv sifatida taklif etildi. Bu usullar o‘quvchilarning tilga bo‘lgan qiziqishini oshirish, ularni mustaqil izlanishga undash va

milliy madaniyatni anglashga xizmat qiladi. Frazelogizmlarni tarixiy asosda o'rgatish orqali o'quvchilar nutq boyligini oshiradi, tanqidiy fikrlash va mantiqiy tafakkurga ega bo'ladi, xalq ijodiga nisbatan hurmat tuyg'usi shakllanadi. Shu bois, ushbu metodlar amaliy ta'lim jarayoniga joriy etilishi zarur va dolzarb hisoblanadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Abduvohid Hayit. Tuzsiz odam. Jadid. –Toshkent: Sharq, 2024. –№32
2. Эркин Воҳидов. Сўз латофати. –Тошкент: O'zbekiston, 2014.–57 б.
3. Маҳмуд Кошғарий. Туркий сўзлар девони (Девону луғотит турк): I Том. – Тошкент: Ўзбекистон СССР Фанлар Академияси Нашриёти, 1963.
4. Маҳмуд Кошғарий. Туркий сўзлар девони (Девону луғотит турк): II Том. – Тошкент: Ўзбекистон СССР Фанлар Академияси Нашриёти, 1963.
5. Маҳмуд Кошғарий. Туркий сўзлар девони (Девону луғотит турк): III Том. – Тошкент: Ўзбекистон СССР Фанлар Академияси Нашриёти, 1963.
6. Таҳрир ҳайъати, Э. Бегматов, А. Мадвалиев ва бошқалар. Ўзбек тилининг изоҳли луғати: 5 жилдли, 80 000 дан ортиқ сўз. Тошкент: – “Ўзбекистон миллий энциклопедияси” Давлат илмий нашриёти, 2006.
7. O'zbek tili frazeologik lug'ati [Matn] : lug'at / Sh.Rahmatullayev, N.Mahmudov, Z.Xolmanova, I.O'razova, K.Rixsiyeva. – T.: G'afur G'ulom nomidagi nashriyotmatbaa ijodiy uyi, 2022. – 636 bet.